

DAVLAT XARIDLARI SOHASIDA «KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR» TUSHUNCHASINING KRIMINOLOGIK TAHLILI VA NAZARIY YONDASHUVLAR



Boyturayev Farxod Mamatkarimovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat xaridlari sohasida “korruptsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasiga kriminologiya nuqtayi nazaridan berilgan ta’riflar qiyosiy tahlil qilingan holda ushbu yo’nalishdagi nazariy qarashlardan kelib chiqib, yangi kriminologik ta’rif ishlab chiqilgan va tushunchaning o’ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: davlat xaridlari, korruptsiya, poraxo’rlik, talon-toroj qilish, korruptsiyaning oldini olish.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНЯТИЮ «КОРРУПЦИОННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ» В СФЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ теоретических подходов к определению понятия «коррупционные преступления» в сфере государственных закупок с точки зрения криминологии, разрабатывается новое криминологическое определение, исходя из теоретических взглядов в этом направлении и выявляются специфические признаки данного понятия.

Ключевые слова: государственные закупки, коррупция, взяточничество, хищение, предотвращение коррупции.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS AND THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF «CORRUPTION CRIMES» IN THE FIELD OF PUBLIC PROCUREMENT

Abstract. The article provides a comparative analysis of theoretical approaches to the definition of the concept of «corruption crimes» in the field of public procurement from the point of view of criminology, develops a new criminological definition based on theoretical views in this direction and identifies the specific features of this concept.

Keywords: public procurement, corruption, bribery, embezzlement, prevention of corruption

Bugungi kunda davlat xaridlari sohasida uchrayotgan korruptsiya bilan bog’liq jinoyatlar xavfsizlikka jiddiy tahdid sifatida maydonga chiqmoqda va ularning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish esa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) bo’yicha hisobotida korruptsiya, poraxo’rlik, talon-toroj qilish va soliq to’lashdan bo’yin tovlash rivojlanayotgan mamlakatlarga har yili taxminan

1,26 trllion AQSH dollari miqdorida zarar keltirayotganligi bayon qilingan[1]. O’z navbatida, korruptsiya bilan bog’liq jinoyatlarning 57% davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarga to’g’ri kelmoqda [2].

BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarining (Sustainable Development Goals) 16.5-bandida korruptsiya va poraxo’rlik ko’lamini uning barcha shakllarida jiddiy ravishda qisqartirish insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida e’lon qilindi [3].

Jumladan, O’zbekistonda davlat xaridlarida sohasida 2020–2024-yillarda 322 ta jinoyat

ishlari qo'zg'atilgan (2020-yilda 29 ta, 2021-yilda 61 ta, 2022-yilda 122 ta, 2023-yilda 126 ta, 2024-yilda 110 ta) [4, 5].

Bugungi kunda respublikamizda davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish milliy miqyosdagi davlat siyosatining ham asosiy ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 15-bandida davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlaridan biri sifatida "davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilishi holatlarning oldini olish choralari" ko'rish" nazarda tutilgan [6].

Ushbu vazifani amalga oshirishda davlat xaridlari sohasidagi "korrupsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasining kriminologik tahlili mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab olishda muhim rol o'ynaydi.

O'z navbatida, doimiy evolyutsiya jaryonida bo'lgan korrupsiyaga oid jinoyatchilik hodisasi doimiy ravishda mavjud nazariy-huquqiy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish va zamon sharoitlariga mos tarzda islohotlarni amalga oshirib borishni taqozo qilmoqda.

Zamonaviy kriminologiya fanida "korrupsiya" tushunchasiga ta'rif berishda har xil fikrlar va yondashuvlar mavjud.

Birinchi yondashuv tarafdorlari tor talqin tarafdorlari bo'lib, "korrupsiya"ni poraxo'rlik holatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Jumladan, korrupsiya muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan A.I. Dolgova korrupsiyaga ijtimoiy hodisa sifatida yondashib, "ommaviy-huquqiy tuzilmalarning xizmatchilari o'z xizmat vakolatlaridan, shuningdek unga bog'liq bo'lgan avtoritet va imkoniyatlaridan foydalanib, shaxsiy va korporativ manfaatlarni ko'zlab pora berishi va pora olishi" sifatida ta'riflaydi [7]. N.F. Kuznetsova esa "korrupsiya salbiy ijtimoiy hodisa, bir shaxsni boshqasi tomonidan pora evaziga sotib olinishi", deb hisoblaydi [8].

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari, xususan, I.A. Klepeskiy va V.I. Rezanov "korrupsiya"

tushunchasini ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida izohlab, odatda, davlat mansabdor shaxslari, jamoat arboblari va siyosatchilar tomonidan o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishlarida ifodalangan xatti-harakatlar, deb ta'riflashgan [9].

G.N. Borzenkov ham "korrupsiya" tushunchasiga ijtimoiy hodisa sifatida yondashib, ushbu hodisaning mohiyatida mansabdor shaxs tomonidan xizmat mavqeining g'araz maqsadlarda foydalanishi oqibatidagi boshqaruv ommaviy apparatining aynishi yotishi haqida fikr ilgari surgan [10]. Ushbu hodisani P.A. Kabanov "korrupsiya – mansabdor shaxslarning o'z xizmat mavqeidan g'araz maqsadda foydalanishi" [11], B.V. Voljenkin "ommaviy funksiyalarni bajarishga mas'ul shaxs tomonidan o'z xizmat mavqeidan g'araz yoki guruhviy maqsadlarda foydalanishdan ifodalangan hokimiyatning aynishi" sifatida ta'riflashgan [12].

Keng talqin tarafdorlari korrupsiyani faqatgina mansabdor va shaxs o'rtasidagi jinoiy bitimgina emas, balki mansabdor shaxs manfaatiga xizmat qiladigan har qanday harakat sifatida baholaydi. Misol uchun, V.S. Komissarovning ta'rificha, korrupsiya deganda, boshqaruv subyektlarini hokimiyat vakolatlaridan foydalanishda shaxsiy manfaatlarni xizmat manfaatlaridan ustun qo'yishi, tushuniladi [13].

N.N. Klyukovskayaning fikricha, korrupsiya tizimli kriminologik hodisa bo'lib, "hokimiyat resurslarini iqtisodiy manfaatlarga ayirboshlashda ifodalanadigan davlat apparatining deformatsiyasi" [14].

Shuningdek, bir qator olimlar tomonidan mazkur tushunchaning nazariy asoslari shakllanishi tendensiyasida xizmat mavqeidan nomoddiy naf olish maqsadida foydalanish ham nazarda tutilgan [15].

Milliy miqyosdagi tadqiqotchilar orasida olima Q.R. Abdurasulova "korrupsiya davlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarayotgan va ularga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan o'z xizmat vakolatlari yoki ular bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanib, g'araz maqsadda yoki boshqa shaxsiy manfaatni ko'zlab sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar (bu qilmishlar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi JKning

tegishli moddalarida nazarda tutilgan) yig'in-disidir", deb ta'riflagan [16].

O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda A.K. Irxodjayev "korrupsiya davlat va boshqa xizmatchilarning rasmiy xizmat vakolatlarini, ular bilan bog'liq bo'lgan nufuz va imkoniyatlarini shaxsiy yoki muayyan guruh, korporativ manfaatlar yo'lida, g'arazli maqsadlarda foydalanishi bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisa" [17], B.D. Axrarov "korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan hokimiyat yoki mansab vakolatlaridan qonunga zid ravishda foydalanib, moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlikka erishish" [18], Q.Tojiboyev "korrupsiya jinoyatchiligi natijasida davlat boshqaruvining imkoniyatlaridan foydalanish, uni o'z manfaatlariga bo'ysundirgan holda tashkil etish asosida vujudga keladi", degan qarashlarni ilgari surganlar [19].

G.B.Nurmuxamedova esa "korrupsiya" tushunchasiga "davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli bo'lgan shaxslar, ularga tenglashtirilgan shaxslarning jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda o'zining mansab lavozimidan noqonuniy foydalanib, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq harakati yoki harakatsizligi evaziga shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi, shuningdek mazkur badda nazarda tutilgan harakatlarni yuridik shaxs nomidan yoxud yuridik shaxs foydasiga bajarish" sifatida ta'rif bergan [20].

"Korrupsiya" tushunchasiga kriminologik ta'riflar yuzasidan adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatmoqdaki, tushuncha mazmuni evolyutsiya davomida kengayib va murakkablashib borgan. "Korrupsiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflarning umumiy jihati shundaki, moddiy yoki nomoddiy naf olish va mansabdor shaxs vakolatlari o'rtasida bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi "korrupsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasini aniqlashtirish bo'yicha ham bir qancha ilmiy

tadqiqotlar olib borilgan, jumladan V.V. Daragan davlat xaridlari bilan bog'liq bo'lgan barcha jinoyatlarni korrupsiyaviy jinoyatlar sifatida e'tirof etgan [21]. Biroq, fikrimizcha, ushbu holatda davlat xaridlari sohasida mansabga sovuqqonlik bilan qarash kabi ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarni korrupsiyaviy jinoyat sifatida e'tirof etib bo'lmasligi sababli, tushunchaga ta'rifni mazmunan toraytirish maqsadga muvofiq.

O.V. Sinchurin tomonidan "davlat, munitsipal va alohida yuridik shaxslar tomonidan xarid qilish qoidalarining huquqqa xilof tarzda buzilishida ifodalanuvchi jinoiy xatti-harakatlar" sifatida ta'rif berilgan [22].

P.V. Teplyashin va G.S. Nabiyevalar tomonidan "korrupsiya mazmuniga ega bo'lgan, davlat va munitsipal ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish qoidalarini buzish bilan bog'liq holatdagi, davlat hokimiyati, davlat xizmati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi xizmatga qarshi qaratilgan jinoyatlardan tarkib topuvchi ijtimoiy-huquqiy, nisbatan ommaviy va tarixiy o'zgaruvchan hodisa" sifatida ta'riflagan [23].

Sh.M. Shurpayev "buyurtmachining vakillari, xaridlar sohasidagi nazorat organlarining mansabdor shaxslari, xarid ishtirokchilarining vakillari, shu jumladan tan olingan yetkazib beruvchilar (pudratchilar, ijrochilar) tomonidan shaxsiy boyish yoki tor guruh manfaatlarini uchun sodir etilgan, fuqarolar yoki tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini yoki jamiyat yoki davlatning himoyalangan manfaatlariga zarar yetkazuvchi jinoyatlar majmui bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy, tarixan o'zgaruvchan, ommaviy hodisa" sifatida ta'rif bergan [24].

Davlatchilik institutining tarixiy evolyutsiyasi davomida davlatning funksiyalar soni kengayib, davlat xaridlari jarayonlari ham doimiy taraqqiyot va o'zgarish bosqichlarini bosib o'tdi. Shundan kelib chiqib, ilmiy bilishning dialektika usulidan, ya'ni barcha hodisalar va jarayonlar o'zaro bog'liqlikda va to'xtovsiz rivojlanishini ilgari surgan holda, mavzuni tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Ushbu yondashuv mohiyati bo'yicha davlat xaridlari sohasidagi har bir jarayon va hodisa sonidan sifatga o'zgarishiga va yangi sifatning paydo bo'lishiga, eskining tugashi va yangi ilg'or jarayonlarni paydo qilish xususiyatiga ega bo'ladi.

Davlat xaridlari sohasidagi korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning profilaktikasini takomillashtirish, ushbu sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilab olish imkonini beruvchi chuqur ilmiy asoslangan nazariy tadqiqotlar va metodologiyani talab etadi.

Mazkur tadqiqot davomida ilmiy bilishning kuzatuv, mantiqiy va qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv usullardan foydalanilgan holda o'rganish amalga oshirildi. Shuningdek, ijtimoiy fikrni o'rganish qaratilgan anketa va ijtimoiy so'rov usullaridan ham foydalanildi.

Xalqaro hujjatlarda ham "korrupsiya" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida "korrupsiya – mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi", deb ko'rsatilgan [25].

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Mansabdor shaxslarning odob axloq kodeksida "korrupsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga moddiy manfaatdor qila-yotgan shaxsning manfaatini ko'zlab mansab vazifasini buzgan yoki buzmagani holda, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rish, deb belgilangan [26].

Korrupsiya muammolari bo'yicha Yevropa Kengashi guruhlarining Strasburg shahrida o'tkazilgan 1-sessiyasida "korrupsiya" tushunchasiga "pora olish (o'ziga og'dirish), davlat yoki

xususiy sohada muayyan vakolatga ega bo'lgan shaxs, mansabdor shaxsning yoki xususiy sohada faoliyat yuritadigan shaxs yoki mustaqil agentning o'z mansab vazifasidan yoki shunga o'xshash munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan, shuningdek, o'zi yoxud o'zga shaxslar manfaati uchun har qanday shakldagi afzalliklarga ega bo'lish maqsadida ifodalangan xatti-harakat" sifatida ta'rif berilgan [27].

Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan berilgan tarifga ko'ra, "korrupsiya – ishonib topshirilgan vakolatni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilish" hisoblansa [28], Jahon banki tomonidan keltirilgan ta'rifda "korrupsiya – ishonib topshirilgan mansab vakolatini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilish" tarzida yoritilgan [29].

O'z navbatida, xorijiy qonunchilik manbalarida ham turlicha ta'riflar berilgan, bunda ko'pchilik xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi islohotlari yuqori baholangan Gruziya va Ukraina qonunchiligi murojaat qilinsa, Gruziya Respublikasining "Davlat xizmatida manfaatlarining nomuvofiqligi va korrupsiya to'g'risida"gi qonunida davlat xizmatchisi tomonidan qonun bilan taqiqlangan moddiy yoki boshqa manfaat ko'rish maqsadida mansabi yoki u bilan bog'liq imkoniyatlaridan foydalanish davlat xizmatidagi korrupsiya sifatida qayd etilgan [30].

Ukraina Respublikasining "Korrupsiyaga chek qo'yish to'g'risida"gi qonunida aniq ro'yxat asosida shakllantirilgan davlat mansabdor shaxslari tomonidan o'zi yoki boshqa shaxslar uchun qonunga xilof naf olish yoki qabul qilish yoxud bunday nafga oid va'da/taklifni qabul qilish maqsadida xizmat vakolatlari yoki u bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlarning foydalanilishi, xuddi shunday bu shaxsni xizmat vakolatlari yoki u bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlarning qonunga xilof foydalanilishi uchun og'dirish maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslarga noqonuniy naf taqdim qilishi "korrupsiya" sifatida qayd etilgan [31].

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida "korrupsiya" tushunchasiga ilk tarif O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida berilgan bo‘lib, unga asosan **korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish [32].

Mazkur yuridik hujjatlardagi ta’riflarning qiyosiy tahlili davomida ma’lum bo‘lishicha, barcha hujjatlarning umumiy jihati: 1) mansabdor shaxslarning o‘z mansab (xizmat) vakolatlaridan yoki ular bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi; 2) o‘zi yoki uchinchi shaxs uchun pul, qimmatbaho narsalar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xususiyatdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olishi yoxud bunday buyumlar yoki naflarni noqonuniy taqdim etishi kabi belgilarining mavjudligi bo‘lsa, farqli jihatlari: 1) Gruziya va Ukraina qonunchiligida subyektlar alohida ko‘rsatib o‘tilganligi; 2) O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida “korrupsiya” tushunchasiga ta’rif berilishida shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu xizmat mavqeidan kelib chiqiladigan imkoniyatlar va ta’sir doirasiga ham e’tibor qaratilishida ko‘rinadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida “korrupsiya” tushunchasiga doir keng ommaning ijtimoiy fikri o‘rganilganda, respondentlarning 48 foizi davlat xizmatchilarining suiiste’molchiligi, xususan, noqonuniy qarorlar qabul qilish sifatida talqin qilgan, shuningdek, so‘rovchilarning 14 foizi pora va noqonuniy sovg‘alar olish/berish, 12 foizi davlat mablag‘larini o‘zlashtirish, 8 foizi mansab vakolatlari hamda davlat mulkidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish hamda 6 foizi tamagirlik deya hisoblashi aniqlangan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va xorijiy qonunchilik tajribasidan kelib chiqib, “davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid jinoyatlar”ga “davlat buyurtmachilarining o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta’minlash jarayonida xarid ishtirokchilari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning benefitsiarlari

va xodimlari hamda ularga aloqador boshqa manfaatdor shaxslarning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalangan jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishi” sifatida ta’rif berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, xorijiy va milliy miqyosdagi tadqiqotlarning qiyosiy tahlili va kuzatuv natijalaridan kelib chiqib, davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaning quyidagi xarakterli belgilarini sanab o‘tish joizdir:

- korrupsiyaviy jinoyatda shaxs nafaqat o‘ziga tegishli bo‘lgan xizmat yoki mansab mavqeidan, balki o‘zga shaxsga tegishli bo‘lgan, biroq shaxsning ta’siri ostida bo‘lgan o‘zga shaxsning mansab yoki xizmat mavqeidan foydalanilishi mumkin;

- korrupsiyaga qarshi standartlar va odo-axloq qoidalari nafaqat qonunchilik hujjatlari bilan, balki ichki tartib-qoidalar yoki o‘zga tashkilotning korporativ ichki standartlari bilan ham belgilanishi mumkin;

- korrupsiya davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslarga sovg‘a olish yoki berishning qonunchilik yoki ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan tartiblarini buzish sanaladi;

- korrupsiya nafaqat davlat sektorida, balki xususiy sektorda (ayniqsa yirik korporativ tuzilmalarda) ham kuzatiladi;

- korrupsiya oqibatida ko‘zlangan naf nafaqat moddiy, balki nomoddiy shaklda bo‘lishi, shuningdek bunday naf faqat shaxsiy yoki o‘zga shaxslarning ham tor manfaatlarini ifodalashi mumkin;

- korrupsiya “yashirin iqtisodiyot” hodisasi bilan chambarchas bog‘liqdir;

- korrupsiyaviy xatti-harakatlarning ayb shakli qasddan sodir etilishida belgilanadi;

- korrupsiyaviy xatti-harakatlar nafaqat mansabdor shaxs, balki xizmatchilar tomonidan ham sodir etilishi mumkin;

- korrupsiyada ifodalangan xatti-harakatlar uchun jinoiy, ma’muriy, intizomiy va boshqa yuridik javobgarlik kelib chiqishi mumkin.

Mazkur belgilar davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaga oid jinoyatlarni boshqa turdagi jinoyatlardan farqlash bilan birga, ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jino-

yatchilik tahlillarini o'tkazish, shuningdek jinoyatlar profilaktikasiga qaratilgan natijaga yo'naltirilgan chora-tadbirlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. The Sustainable Development Goals Report 2023 // Available from URL: www.un.org/sustainabledevelopment/peace-justice.
2. Safarov X. Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish: Yurid.fan. d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – T., 2023. –B.3
3. United Nations (2017) Resolution adopted by the General Assembly on 6 July 2017, Work of the Statistical Commission pertaining to the 2030 Agenda for Sustainable Development // URL:<https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754Technical%20report%20of%20the%20UNSC%20Bureau%20%28final%29.pdf>
4. Safarov X. Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish: Yurid.fan. d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – T., 2023. –B.3
5. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL> saytida e'lon qilingan sud hukmlari asosida tayyorlandi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni // URL:<https://lex.uz/uz/docs/5841063>
7. Криминология: Учеб. для юрид. вузов / Под общ. Ред. А.И. Долговой. – М., Инфра-М-НОРМА, 1997. – С. 501.
8. Кузнецова Н.Ф. Коррупция в системе уголовных преступлений // Вестник МГУ. – Сер. 11. – 1993. – №1. – С.21.
9. Клепецкий И.А., Резанов В.И., Получение взятки в уголовном праве: Комментарий законодательства. – М., 2001. – С.67
10. Борзенков Г. Н. Уголовно-правовые меры борьбы с коррупцией // Вестник Московского университета, 1993. Серия 11. Право. – № 1. – С. 30
11. Кабанов П.А. Коррупция и взяточничество в России: исторические, криминологические и уголовно-правовые аспекты. – Нижнекамск, ИПЦ «Гузель», 1995.
12. Волженкин Б.В. Коррупция. – СПб., 1998. – С. 32.
13. Комиссаров В.С. Уголовно-правовые аспекты борьбы с коррупцией // Вестник МГУ. Сер. 11. – 1993. – № 1. – С. 26.
14. Ключевская И.Н. К вопросу о коррупции // Вестник Ставропольского государственного университета. – 2003. – №33. – С.98–104
15. Гараев Р.Ф., Селихов Н.В. Понятие коррупции // Следователь. – 2001. – №2. – С.48; Гаухман Л.Д. Коррупция и коррупционное преступление // Законность. – 2000. – № 6. – С. 2–6 ; Макаров С.Д. Характеристика преступных проявлений коррупции // Реагирование на преступность: концепции, закон, практика / Под ред. А.И. Долговой, В.В. Астанина. – М., Российская криминологическая ассоциация, 2002. – С. 83.
16. Abdurasulova Q., Qurbonov O. Korruptsiya: Asosiy tushuncha va shakllari (risola). – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. – B.60.
17. Криминология: Учебник / Отв.редактор М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. – С. 219, 221–222
18. Axarova B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. d-ri ... dis. – T., 2008. – B.143–146
19. Tojiboyev Q. Mansab mavqeini suiiste mol qilish yo li bilan o zgalar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik. – Toshkent: TDYUI, 2004. – B.13
20. Nurmuxamedova G.B. Korruptsiya bilan bog liq jinoyatlarning kriminologik tavsifi va ularning profilaktikasini takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – T., 2021. – 12–13-b.
21. Дараган В.В. Преступность в сфере государственных закупок и ее взаимосвязь с коррупционной преступностью // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2015. – № 3 (31). – С.63.
22. Синчуринов О.В. Понятие коррупционных преступлений в сфере государственных закупок и их классификация // Государственная служба и кадры. – 2019. – №1. – С.128–129.
23. Тепляшин П.В., Набиев Г. С. Понятие и некоторые особенности преступности в сфере поставки товаров, выполнения работ и оказания услуг для муниципальных нужд (теоретический аспект). Пролог: журнал о праве. –2014. – №2. – С.37–41.
24. Шурпаев Ш.М. Понятие и правовая природа государственного контракта // Вестник Саратовской государственной юридической академии. – 2015. – № 2. – С. 248–253
25. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией 34/169 Генеральной Ассамблеи ООН от 17.12. 1979 г.) // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml
26. Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка. Принят резолюцией 34/169 Генеральной Ассамблеи ООН от 17.12.1979 г. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml
27. Конвенция о гражданско-правовой ответственности за коррупцию (ETS № 174): заключена в г. Страсбурге 4 ноября 1999 г. Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс»
28. <https://www.transparency.org/en/what-is-corruption>
29. <https://www.worldbank.org/en/news/factsheet/2020/02/19/anticorruption-fact-sheet>
30. Закон Республики Грузии "О несовместимости интересов и коррупции на публичной службе" // <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/33550?publication=88>
31. Закон Украины О предотвращении коррупции // https://ips.ligazakon.net/document/T14_1700?an=2377
32. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3/19/542/3177-son.